



# A model for developing the professional and ethical culture of vocational education students based on preventive measures

Ilkhomjon SIROJIDINOV<sup>1</sup>

Institute of Development of Professional Education

## ARTICLE INFO

### Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

### Keywords:

Vocational education,  
professional ethics and  
culture,  
preventive measures,  
professional culture,  
social-pedagogical services,  
pedagogical modeling.

## ABSTRACT

This article investigates the scientific and theoretical foundations, methodological approaches, and practical models of developing students' professional and ethical culture in vocational education institutions based on preventive measures. Drawing on the research findings, the study analyzes effective ways to implement preventive measures in vocational education institutions and their impact on shaping students' professional and ethical culture.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp28-38>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

# Preventiv chora-tadirlar asosida kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish modeli

### Kalit so'zlar:

Kasbiy ta'lim,  
kasbiy-axloqiy madaniyat,  
preventiv chora-tadirlar,  
kasbiy madaniyat,  
ijtimoiy-pedagogik xizmat,  
pedagogik modellashtirish.

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada preventiv chora-tadbirlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, uslubiy yondashuvlari va amaliy modellari tadqiq qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida preventiv chora-tadbirlarini samarali tashkil etish yo'llari va ularning o'quvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga ta'siri tahlil qilinadi.

<sup>1</sup> Independent Researcher, Institute of Development of Professional Education. E-mail: [sirojidinov-ilxomjon@mail.ru](mailto:sirojidinov-ilxomjon@mail.ru)

## Модель формирования профессионально-нравственной культуры учащихся профессиональных образовательных учреждений на основе превентивных мер

### АННОТАЦИЯ

#### *Ключевые слова:*

профессиональное образование, профессионально-этическая культура, превентивные меры, профессиональная культура, социально-педагогическая служба, педагогическое моделирование.

В данной статье исследуются научно-теоретические основы, методологические подходы и практические модели формирования профессионально-этической культуры учащихся в учреждениях профессионального образования на основе превентивных мер. На основе результатов исследования анализируются способы эффективной организации превентивных мероприятий в учреждениях профессионального образования и их влияние на формирование профессионально-этической культуры учащихся.

Kasbiy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy maqsadi nafaqat yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, balki ularning kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish hamdir. Kasbiy-axloqiy madaniyat shaxsning kasbga nisbatan mas'uliyatli munosabati, mehnat intizomi, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga sodiqligi, shuningdek, kasbiy faoliyatda etik qoidalarga rioya qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bu jihatdan, preventiv chora-tadbirlari asosida o'quvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish jarayonini tashkil etish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Preventiv chora-tadbirlari deb, oldini olish, ogohlantirish va erta aniqlashga qaratilgan tizimli faoliyatni tushunamiz. Bu tadbirlar orqali o'quvchilarda kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnatga hurmat va kasbiy etika qoidalariga rioya qilish qobiliyati shakllantiriladi. Shu bilan birga, preventiv chora tadbirlari yoshlarni noqonuniy xatti-harakatlar, korrupsiya, kasbiy etikasizlik kabi salbiy hodisalardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida preventiv chora-tadbirlari asosida kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning samarali modelini ishlab chiqish va joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bu model nafaqat o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini oshirishga, balki ularning shaxsiy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ham yordam beradi. Bundan tashqari, preventiv chora-tadbirlari orqali ta'lim muassasalarida ijtimoiy sog'lom muhitni yaratish, o'quvchilarning jamiyatga moslashuvini osonlashtirish va ularning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12-noyabr 2020-yildagi "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4891-sonli Qarorida "Talabalar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash; talabalar o'rtasida yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo'yicha targ'ibot tadbirlarini (davra suhbatlari, savol-javoblar, sinovlar va boshqalar) o'tkazish" asosiy vazifalar etib belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14-avgust 2018-yildagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarorida "Yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash; yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash; yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish; yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish" ustuvor vazifalar etib belgilangan [2].

Kasb-hunar ta'limida preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy yondashuv – kundalik hayotda, o'quvchilar bilan profilaktik faoliyatni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam ko'rsatish va zaruriy tuzatishlar kiritishdir. Ilgari qo'llangan an'anaviy profilaktika usullari yoshlar orasidagi narkomaniya muammosining keskinligini kamaytirmadi. Bu shuni anglatadiki, ijtimoiy-pedagogik faoliyat amaliyoti yoshlar kundalik hayotiga yo'naltirilishi va narkotik moddalarga qarshi preventiv choralar yordamida amalga oshirilishi zarur.

Ijtimoiy-pedagogik xizmat faoliyati ta'lim bosqichini ham qamrab olishi zarur, chunki o'quvchilar o'zlarining hayotiy muammolarini hal qilishda mutaxassislar yordami va ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Bu talabni kuchaytiruvchi omillardan biri shundaki, birinchi kurs o'quvchilari orasida hali voyaga yetmagan yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Ijtimoiy-pedagogik xizmat va jamoat birlashmalari hamkorligida samarali profilaktik faoliyat olib borish yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Jamoat birlashmalarining tarbiyaviy funksiyasi quyidagilarga qaratilgan:

- shaxsning ijobiy ijtimoiy sifatlarini shakllantirish;
- o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
- birlashma ishtirokchilarining ijtimoiy faolligini rag'batlantirish.

Ushbu guruh ishtirokchilarini umumiy maqsad va g'oya birlashtiradi, ularga faoliyat shakllarini erkin tanlash va o'z tashabbusi bilan tashkilot ishlarini amalga oshirish imkoniyati beriladi. O'quvchi jamoat birlashmasiga qo'shib, o'quvchilar o'z ijtimoiy mavqeini oshiradi, yangi ijtimoiy ro'lga ega bo'lib, jamiyat uchun foydali faoliyatda ishtirok etadi va shaxs sifatida o'z o'rnini topadi.

Ijtimoiy-pedagogik xizmat va o'quvchi jamoat birlashmasining birgalikdagi narkotik moddalarga qarshi profilaktik faoliyatini yaxshi tushunish uchun ushbu faoliyatning modelini yaratish zarur. Modellashtirish pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi va bu usul amaliy va nazariy jihatlarni birlashtirish imkonini beradi.

Modellashtirish metodining asosiy tushunchasi "model" hisoblanadi. A.N. Daxin modelni "tadqiq qilinayotgan obyektga o'xshash, uning tuzilishi, xususiyatlari va elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni soddalashtirilgan holda ifodalovchi sun'iy ob'ekt" deb tariflaydi. Modelning amaliy ahamiyati tadqiq qilinayotgan ob'yektning tomonlarini to'g'ri aks ettirishga bog'liq, shuningdek, modellashtirishning asosiy tamoyillari – ko'rgazmalilik, aniqlik va ob'yektivlik hisobga olingan bo'lsa, pedagogik tadqiqotda model samaradorligi oshadi [5].

Modellashtirish samaradorligi dastlabki nazariya va gipotezalarning to'g'riligiga bog'liq bo'lib, modelning mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Avstriyalik mantiqshunos K.Gedelning to'liqsizlik va ichki qarama-qarshilik haqidagi teoremlariga ko'ra, har qanday tizimning to'liq va yakuniy tavsifi uchun barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etish mumkin emas [4].

Pedagogikada modellashtirish samaradorligini tavsiflash uchun "pedagogik valildlik" tushunchasi kiritilgan bo'lib, u "haqiqiylik" va "adekvatlik" tushunchalariga yaqin, ammo ularga aynan to'g'ri kelmaydi. Pedagogik valildlikni konseptual, mezoniy va miqdoriy jihatdan asoslash lozim, chunki modellashtirishda ko'pincha ko'p omilli hodisalar qo'llaniladi. Shuning uchun ijtimoiy sohadagi murakkab hodisalarni modellashtirish imkoniyatlari va natijalari borasidagi bahslar davom etmoqda va bu masala hanuz to'liq yechim topmagan. Modellashtirish jarayonida har qanday model, hatto juda murakkab bo'lsa ham, o'rganilayotgan ob'yektni to'liq ifodalash yoki uning rivojlanish yo'nalishini to'liq tavsiflay olmasligi e'tiborga olinishi kerak. Shu sababli, tadqiqotchilar modellarni yaratishda ularning to'liqligi va valildligi o'rtasida muvozanat saqlashga intilishadi.

Yuqorida bayon etilganlarga asosan, modellashtirishda pedagogik modellashtirishning metodologik tamoyillariga e'tibor qaratildi:

- **Yaxlitlik tamoyili:** jarayonning faqat elementlari emas, balki ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ham aks ettirish imkoniyatini yaratish.

- **Jarayonni amalga oshirishdan oldin uni o'rganish imkoniyati tamoyili:** jarayon haqidagi bilimni unga kirishishdan oldin to'plash.

- **O'z-o'zini rivojlantirish tamoyili:** ijtimoiy va tarbiyaviy vaziyatlarga qarab dinamik va o'zgaruvchan pedagogik modellarni yaratishga yo'naltirilgan.

- **Reallik tamoyili:** ishlab chiqilgan pedagogik modelni amaliyotda qayta tiklash va o'xshash ta'lim sharoitlarida qo'llash imkonini yaratish [6].

Modellar turli tizimlar ichida mavjud bo'lishi va birlashishi mumkin, shuningdek, har bir model mustaqil ravishda ham mavjud bo'lishi mumkin.

Modellarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. **Funksional model:** tizimning ishlash xususiyatlarini va uning ichki va tashqi elementlar bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga mo'ljallangan.

2. **Harakat tamoyili modeli (kontseptual model):** haqiqiy tizimning eng muhim bog'lanish va xususiyatlarini ifodalaydi.

3. **Tuzilmaviy model:** bu tur quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- **Mazunli tuzilma:** o'rganilayotgan obyektning qismlari va ularning o'zaro bog'lanishini soddalashtirilgan grafik tasvirda ifodalaydi.

- **Topologik model:** obyektlar orasidagi bog'lanishlarni, ularning geometrik xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan holda, aks ettiradi.

Biz ijtimoiy-pedagogik xizmat va o'quvchi jamoat birlashmalarining preventiv chora-tadbirlar asosida o'quvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini rivojlantirishni modellashtirish uchun tuzilmaviy modelni tanladik. Bu model jarayon bosqichlari va bosqichlar ketma-ketligini, amallar va texnik vositalar yig'indisini, ishtirokchilarning hamkorlikdagi faoliyatini ifodalaydi [7].

Profilaktik faoliyatning umumiy tuzilmasi quyidagi komponentlardan tashkil topadi: maqsadga yo'naltiruvchanlik, sub'yektivlik, motivatsiya, tashkiliy-metodik, mazmunli, jarayonli va baholovchi-komponentlar.

Maqsadli komponent: Modelda maqsad qo'yish juda muhim, chunki model maqsadlarni amalga oshirish uchun vosita hisoblanadi. Ushbu profilaktik faoliyatning maqsadi – o'quvchilarning kasbiy-axloqiy madaiyatini rivojlantirishdir.

Bu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni hal qilishni talab etadi:

1. Narkotik moddalarning salbiy ta'sirini minimallashtirish, o'quvchilarda faol hayot tarziga bo'lgan motivatsiyani oshirish va ularni ijtimoiy hamda shaxsiy jihatdan ahamiyatli faoliyatga jalb qilish.

2. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va samarali xulq-atvor strategiyasini yaratish uchun shart-sharoit yaratish.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o'quvchilar jamoat birlashmalarini qo'llab-quvvatlash uchun kasb-hunar ta'limi muassasasi resurslaridan foydalanish.

Mazkur yondashuv orqali kasb-hunar ta'limi muassasalarida preventiv chora tadbirlar asosida o'quvchilar va ijtimoiy-pedagogik xizmat o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish mumkin bo'ladi.


Ta'lim muassasasining, xususan, jamoat birlashmalarining resurslarini safarbar qilish – preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun muhim shartdir. Maqsad va o'quvchilar imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish – belgilangan maqsadga erishish yo'lidagi muhim qadamdir. Kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy-axloqiy madaiyatini shakllantirish maqsadi aniq natija sifatida belgilanishi mumkin emas. Shu sababli, bu jarayon shaxsning ichki potensialini ochishga qaratilishi kerak, bu esa kelajakda sog'lom jamiyat a'zosi sifatida shaxsiy rivojlanish jarayonini boshlaydi [8].

Preventiv faoliyatning asosiy sub'yektlari jamoat birlashmasi, ta'lim muassasasining ijtimoiy-pedagogik xizmati mutaxassislari va o'quvchilar orasidagi ijtimoiy muhitdir. Ushbu model doirasida tashkil etilayotgan barcha faoliyatlar ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan boshqariladi.

Jamoat birlashmasining preventiv faoliyat ishtirokchisi sifatida tashkil etilishi ijtimoiy-pedagogik xizmat mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchi jamoat birlashmasi o'quv muassasasi tarbiyaviy tizimining bir qismi bo'lib, uning faoliyati ta'lim muassasasi tarbiyaviy faoliyatining ajralmas qismi sifatida rivojlanadi. Jamoat birlashmasi nafaqat preventiv faoliyat ishtirokchisi, balki o'quvchilar orasida ushbu faoliyatning asosiy targ'ibotchisi sifatida qaraladi [6].

Turli sub'yektlar faoliyatining umumiy va o'ziga xos jihatlari preventiv faoliyatda differentsiallashtirish va integratsiya tamoyillarini talab qiladi:

**1. Differentsiallashtirish:** Har bir sub'yektning aniq funksiyalari va preventiv ta'sir sohalarini belgilashni talab etadi.



**1-rasm. Preventiv chora-tadbirlar asosida o'quvchilarning kasbiy-axliqiy madaniyatini shakllantirish modeli**

## 2. Integratsiya:

- o turli shakllardagi hamkorlikda faoliyatni tashkil etish;
- o hamkorlik va o'zaro tushunishni mustahkamlash;
- o boshqaruv organining o'zaro hamkorlikdagi sub'yektlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilganligi.

Hamkorlikda olib boriladigan faoliyatda har bir ishtirokchi o'ziga xos funksiyani bajaradi. O'quvchilar, o'qituvchilar va ularning yaqin ijtimoiy muhitining hamkorlikdagi faoliyati samarasi ularning mavjud muammolarni hal qilish yo'llarini izlash va professional yordam olish darajasiga bog'liq. Ta'lim muassasasi ma'muriyatining yordami ham katta ahamiyatga ega.

Modelning motivatsion komponenti o'quvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy sog'lom hayotga intilish, o'quvchilarda sog'lom shaxsiy xulq-atvor va ijtimoiy sog'lom odatlar shakllanishini nazarda tutadi [4].

Profilaktik faoliyat tizimini takomillashtirish va uni samarali amalga oshirish uchun quyidagilar qo'llaniladi:

- pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar (davra suhbatlari, maslahatlar va boshqalar);
- profilaktik dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish va ta'lim muassasasi sharoitida joriy etish.

Loyihalash texnologiyasi ijtimoiy-pedagogik xizmat va jamoat birlashmasining hamkorlikdagi faoliyatida birlashtiruvchi bo'g'in hisoblanadi va belgilangan maqsadga erishish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda loyihalash texnologiyasining o'ziga xosligi shundaki, u amallar algoritmi sifatida qaraladi va ko'paytirilishi mumkin bo'lib, o'xshash ijtimoiy masalalarni hal etish uchun qo'llaniladi. Shuning uchun loyihalash texnologiyasidan kasb-hunar ta'limida foydalanish dolzarb, chunki o'quvchilarni loyihaviy faoliyatga jalb qilish ularda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga yordam beradi.

Loyihaviy faoliyat – o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy, tashabbuskor va jamoaviy faoliyat turi bo'lib, ijtimoiy-pedagogik texnologiya talablarini to'liq aks ettiradi. Loyihalash texnologiyasida ba'zi ilmiy tamoyillar qo'llaniladi, lekin bu tamoyillar muayyan sohada o'ziga xos mazmun kasb etadi. Yu.Yu.Antropova fikricha, loyihalash usullarining samaradorligi bilim olish faoliyatini tartibga soluvchi tamoyillarning mavjudligi bilan ta'minlanadi [3]. Ular quyidagilardir:

1. **Aniqlik** – usullarni tushunishga yengillik yaratadi.
2. **Determinatlik** – tamoyillarni qo'llashda tasodifiylikka yo'l qo'yilmaydi.
3. **Yo'naltirilganlik** – muayyan maqsad va vazifalarga bo'ysunadi.
4. **Natijaviylik** – rejalashtirilgan natijalar bilan bir qatorda boshqa muhim natijalarni ham ta'minlaydi.
5. **Ishonchlilik** – boshlang'ich natijani olish ehtimolini oshiradi.
6. **Tejamkorlik** – vaqt va mablag'ni minimal sarflab natijaga erishish imkonini beradi.

Preventiv antnarkotik faoliyat loyihalari va dasturlari doirasida quyidagi interfaol shakl va usullarni qo'llash mumkin: ta'lim muassasasida axborot va motivatsion uchrashuvlar, aksiyalar, antnarkotik faoliyat bo'yicha mutaxassislar bilan davra suhbatlari, treninglar, videofilmlar tomosha qilish va muhokama qilish, antnarkotik reklama roliklari yaratish, brifinglar va boshqalar.

Preventiv faoliyat dasturlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu faoliyatni amalga oshirishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

1. Antinarkotik ma'rifiy faoliyat faqat maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar tomonidan, tasdiqlangan konsepsiyaga asoslangan kompleks dasturlar doirasida amalga oshirilishi kerak.

2. Dasturlarni amalga oshirishda narkotiklar va ularning insonning psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy farovonligiga ta'siri haqida to'g'ri, o'rinli va yetarli ma'lumotlar taqdim etilishi kerak.

3. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

4. Ma'lumotlar auditoriya xususiyatlarini (yosh, jins, e'tiqod) hisobga olgan holda taqdim etilishi kerak.

Modelning mazmuniy komponenti o'quvchilarning narkotik moddalarga qarshi xatti-harakatlarini shakllantirish jarayonining izchil va barqarorligini ta'minlaydi. Bu komponent o'quvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish uchun zarur bilim, ko'nikma, munosabat va shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi.

Antinarkotik xatti-harakat insonning narkotik holatlarga qarshi barqaror reaksiya sifatida shakllangan ijtimoiy sog'lom ko'nikmalar majmuidir. Shaxsga yo'naltirilgan tarbiya paradigmasiga asoslanib, bu komponent har bir o'quvchini shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari va qadriyatlari asosida rivojlantirishga qaratilgan.

Jamoat birlashmalari antinarkotik faoliyatni jamoat ishlariga qo'shib, o'quvchilar muammolarini hal qilishga qaratilgan turli tadbirlarni amalga oshirishi kerak. Bu o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy ahamiyatli ko'nikmalarni rivojlantirish va narkotik moddalarning zararli ta'sirini kamaytirishga hissa qo'shadi.

Kasb-hunar ta'limida antinarkotik faoliyat kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan gumanitar fanlar va fakultativ mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Bular jumlasiga tarix, madaniyatshunoslik, psixologiya, pedagogika kabi fanlar kiradi. O'tkazilgan tadqiqotlar ko'plab o'quvchilar bu fanlarni ikkinchi darajali deb hisoblashini ko'rsatadi, lekin aynan shu fanlar kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Ushbu model bo'yicha ishlashning asosiy tamoyili ijobiy ijtimoiy-madaniy muhit yaratishdan iborat bo'lib, bunda preventiv chora-tadbirlar o'tkazilib, o'quvchilarning sog'lom ijtimoiy hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan profilaktik faoliyat amalga oshiriladi.

Amaliyot ko'rsatganidek, yoshlar ko'pincha muammolari bilan yolg'iz qoladi va zarur yordam kech yetib keladi. Ular tushunilmay qolishdan qo'rqishadi yoki yordam bera oladigan mutaxassislarni topolmaydilar. Bunday vaziyatlarda ular ko'pincha birinchi navbatda tengdoshlari yordamiga murojaat qiladi. Shu bilan birga, yoshlar ijtimoiy guruhlariga kirib qolishi va narkotik moddalar iste'moliga moyil bo'lishi mumkin. Shu sababli, jamoat birlashmasi ijobiy yoshlar submadaniyatini aks ettiruvchi, qiyin vaziyatlardan chiqishning sog'lom alternativ yo'llarini ko'rsatadigan tashkilot bo'lishi kerak.

O'quvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllanganlik darajasini baholash uchun quyidagi mezon va ko'rsatkichlar aniqlangan:

1. **Motivatsion mezon:** Sog'lom turmush tarzini olib borishga ijobiy motivatsiyaning mavjudligi.



2. **Kognitiv mezon:** Sog'liqning qadriyat sifatida anglanishi, zararli odatlarning xavfini tushunish va psixologik barqarorlik.

3. **Faoliyat mezoni:** Sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi odatlar, preventiv faoliyatda shaxsiy ishtirok.

Mazkur mezonlarga asoslanib, antinarkotik xatti-harakatning ikki darajasi ajratilgan:

1. **Yetarli daraja:** Bu darajada sog'lom turmush tarziga barqaror motivatsiya, sog'lig'iga ongli munosabat va narkotiklardan voz kechish hamda preventiv faoliyatda faol ishtirok mavjud bo'ladi.

2. **Yetarli bo'lmagan daraja:** Motivatsiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, sog'liq qadriyatini anglashning pastligi, narkotik moddalar iste'moliga moyillik.

Ushbu tuzilmaviy kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayonidagi komponentlarning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Komponentlar o'rtasidagi munosabatlar, xususan, tashkilotchilik, kommunikativ va boshqaruv aloqalari ijtimoiy-pedagogik o'zaro ta'sir jarayonida namoyon bo'ladi. Komponentlarning tizimli integratsiyasi, nazorat va baholashni yanada samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish samaradorligini oshirish uchun zaruriy tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar quyidagilar:

1. Ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni rivojlantirish va jamoat birlashmasining antinarkotik faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa tuzilmalar bilan hamkorlik qilishini ta'minlash.

2. Yoshlar muhitidagi narkotik muammolarni kompleks yondashuv yordamida hal qilish va qiziqqan tomonlar o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Ushbu model orqali kasb-hunar maktablarida o'quvchilarni preventive faoliyatga jalb etish, ularda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish va ijtimoiy foydali ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin.

Hozirgi sharoitda yoshlar orasida narkomaniyaga qarshi kurash masalasida ta'lim muassasasi pedagogik jamoasining barcha qiziqqan tomonlar bilan kompleks va maqsadli hamkorlik o'rnatishi juda muhimdir. Ushbu hamkorlik, har bir sub'yektning umumiy va o'ziga xos faoliyatiga asoslangan holda, ushbu hududdagi barcha vakolatli tuzilmalar sa'y-harakatlarining birlashgan natijasi sifatida shakllanadi.

Mazkur sharoitni ta'minlash uchun quyidagi aloqalarni o'rnatish zarur:

• **Jamoat birlashmasi, profilaktika inspektorlari va ta'lim muassasasi mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlik;**

• **Ta'lim muassasasi mutaxassislari o'rtasida o'zaro hamkorlik** [jamoat birlashmasi bilan profilaktika inspektorlari o'rtasida axborot almashinuvi va integratsiyalangan faoliyat yuritish].

Yoshlar jamoat birlashmasining rivojlanishi uchun D.N. Lebedev mutaxassislar – yoshlar harakatining tashkilotchilari tajribasini saqlab qolish, malakali yosh kadrlarni jalb qilish, xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni muhim deb hisoblaydi. Tajribaning vorisligi faoliyatdagi "zaif" jihatlarni minimallashtirish, yutuqlar va xatolarni hisobga olish, mavjud muammoni hal qilishda jamoat birlashmalarining faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish imkonini beradi.

Yoshlar jamoat birlashmasi bilan ishlash uchun malakali yosh kadrlarni jalb qilish preventiv antinarkotik faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishga yordam beradi hamda ijodkor, faol va o'quvchi yoshlar muammolariga befarq bo'lmagan mutaxassislar bilan jamoani boyitadi.

Vazifalar bo'yicha xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy qilish orqali faoliyat yangi bosqichga ko'tarilib, volontyorlar bilan ishlashda eng maqbul usul tanlanadi va tashkilotchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqaradi.

Ishlab chiqilgan modelning muvaffaqiyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- **Hamkorlik kengligi** – preventiv antinarkotik profilaktika faoliyatida barcha muhim subyektlarning faol ishtiroki;
- **Aloqalar to'liqligi va rivojlanishi** – hamkorlikdagi sub'yektlar o'rtasidagi aloqalar mazmunining to'laligi va rivojlanishi;
- **Funksional maqsadlilik** – hamkorlikda ishtirok etayotgan sub'yektlarning faoliyatining maqsadlilik;
- **Yagona gumanistik va konstruktiv yondashuvning mavjudligi.**

Yoshlar jamoat birlashmalarining faoliyati mazmunining o'zgarishidagi asosiy nuqta, uning ijtimoiy-amaliy ahamiyat kasb etishida bo'lib, bu o'quvchilarning o'z ijtimoiy-psixologik, axloqiy va kasbiy-axloqiy o'zini o'zi tashkil etish va ijtimoiy boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatlari va istiqbollarga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish zaruriyatidir.

Tashkilotning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, o'zgaruvchan sharoitlarda ustuvorliklarni to'g'ri tanlash qobiliyatiga bog'liq. Jamoat birlashmalari o'z adaptivligini faqat moddiy resurslarni ko'paytirish orqali emas, balki ijtimoiy e'tirofni qo'lga kiritish orqali ham rivojlantirishi mumkin. Yoshlar jamoat birlashmalari yoshlar va umuman jamiyat ehtiyojlari, manfaatlari va kayfiyatlarini "his etib", ushbu asosda yangi ijtimoiy haqiqatni yaratishga qaratilgan.

Shunday qilib, ijtimoiy-pedagogik xizmat va yoshlar jamoat birlashmasining birgalikdagi preventiv antinarkotik faoliyatining mohiyatini, uning asosiy funksiyalari va yo'nalishlarini aks ettirish uchun biz modellashtirish metodini tanladik. Kasb-hunar ta'limida ijtimoiy-pedagogik xizmat va yoshlar jamoat birlashmalarining birgalikdagi preventiv antinarkotik faoliyatining tuzilmaviy modeli (maqsadli, sub'yektli, motivatsion, tashkiliy-metodik, jarayonli, mazmunli va baholovchi-rezultativ komponentlardan iborat) ushbu jarayonni ta'lim massasasining tarbiyaviy jarayonining ajralmas qismi sifatida ifodalaydi va o'quvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. Kasbiy-axloqiy madaniyatni baholash mezonlari biz ajratgan antinarkotik xatti-harakatlarning kognitiv, kreativ va konativ elementlariga asoslanadi va o'quvchilarning narkotik masalalarini tushunish, ularni tahlil qilish, o'zgartirish va preventiv antinarkotik faoliyatda qo'llash istagini va ehtiyojini o'z ichiga oladi.

Mazkur model bo'yicha kasb-hunar ta'limida ijtimoiy-pedagogik xizmat bilan birgalikda tashkil etilgan yoshlar jamoat birlashmalarining preventiv antinarkotik faoliyati o'quvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida yuqori natijalarga erishishni ta'minlashi mumkinligi haqidagi taxminni sinab ko'rish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.11.2020 yildagi PQ-4891-son. Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.08.2018 yildagi PQ-3907-son. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida.

3. Антропова Ю.Ю. Проектное управление как инструмент развития системы социального обслуживания населения в современных условиях // Вестник ЧелГУ. 2009. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/proektnoe-upravlenie-kak-instrument-razvitiya-sistemy-sotsialnogo-obsluzhivaniya-naseleniya-v-sovremennyh-usloviyah>.

4. Godel K. What is Cantor Continuum Problem? // American Mathematical Monthly. 1947. № 54/9. P. 515-525. Reprinted with English translation in the: Collected Works. N.Y., 1990. Vol. 2. 3.

5. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и ... неопределенность / А.Н. Дахин // Педагогика. – 2003. -№ 4. – С. 21-26.

6. Maqsdov Xushnur. (2022). Giyohvandlikka qarshi kurashga oid qonunlarning ijrosi ustidan prokuror nazorati tushunchasi. *Общество i innovasii*. 3. 470-473. 10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp470-473.

7. Obiagu, AN., & Onele, AV. (2024). "Prevalence and causes of drug abuse among youth-recipients of school-based drug education programs." *Canadian Journal of Family and Youth*, 56-bet.

8. Spooner, C. (1999). "Causes and correlates of adolescent drug abuse." *Drug and Alcohol Review*, 45-bet.

9. Tulu, SK., & Keskis, W. (2015). "Assessment of causes, prevalence and consequences of alcohol and drug abuse among Mekelle University students." *American Journal of Applied Psychology*, 49-bet.

10. Xayitmatov, Zoxidjon. (2023). Markaziy Osiyo mintaqasida giyohvandlikning salbiy oqibatlaridan yoshlarni saqlash muammolari. *Общество i innovasii*. 4. 360-364. 10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp360-364.

11. Van Zyl, AE. (2013). "Drug use amongst South African youths: Reasons and solutions." *Mediterranean Journal of Social Sciences*, 35-bet.